

INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING MINTAQAVIY RIVOJLANISH ASOSLARINING ASOSIY OMILLARI TAHLILI

Ruzmetova Gulira'no Atabekovna

Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15648515>

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson kapitalini rivojlantirishning mintaqaviy rivojlanishdagi o'рни va asosiy omillari tizimli tarzda tahlil qilinadi. Inson kapitali zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotda strategik resurs sifatida qaralib, uning shakllanishi va rivojlanishi ta'lim sifati, sog'liqni saqlash tizimi, ijtimoiy infratuzilma, mehnat bozori ehtiyojlari hamda hududiy boshqaruv siyosati bilan bevosita bog'liq ekani asoslab beriladi. Maqolada G'arb va Sharqiy Yevropa tajribalari asosida, xususan, Slovakiya, Italiya va Rossiya mintaqalari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar tahlil qilinib, global tahdidlar sharoitida inson kapitalini rivojlantirishga bo'lgan yangi yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Muallif tomonidan inson kapitalining hududiy migratsiyaga, innovatsion salohiyatga va iqtisodiy raqobatbardoshlikka ta'siri ochib berilgan. Tahlillar natijasida, mintaqaviy rivojlanish siyosatini inson kapitali bilan uyg'unlashtirgan holda kompleks va barqaror rivojlanish strategiyalarini shakllantirish zarur degan xulosa beriladi.

Inson kapitali – bu jamiyat a'zolarining bilim, ko'nikma, salomatlik, innovatsion salohiyat va ishlab chiqarishdagi samaradorlik darajasi bilan ifodalanadigan strategik resursdir. Mazkur kapital turining mintaqaviy rivojlanishga ta'siri murakkab, ko'p darajali va ko'p omilli bo'lib, iqtisodiy, ijtimoiy hamda institutsional omillar bilan chambarchas bog'liqdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson kapitalining rivojlanishi mintaqaviy farqlanishga olib keluvchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi va u quyidagi asosiy omillar orqali shakllanadi: ta'lim sifati, sog'liqni saqlash tizimi, ijtimoiy infratuzilma, innovatsion muhit va mehnat bozorining dinamikasi.

Tadqiqotchilar A.Faggian, F.Modrego va P.McCann¹lar tomonidan olib borilgan tadqiqotda ta'kidlanishicha, inson kapitalining mintaqaviy iqtisodiy o'sishga bevosita ta'siri mavjud bo'lib, bu ayniqsa yuqori texnologiyalar joriy etilgan va malakali mehnat kuchiga talab yuqori bo'lgan hududlarda yaqqol seziladi. Bunday hududlar bilimga asoslangan iqtisodiyotga tezroq moslasha oladi va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni saqlab qoladi.

Hududiy farqlarning statistik asosda tahlili esa Jaskova va Haviernikova² tomonidan Slovakiya misolida amalga oshirilgan bo'lib, ular mintaqalardagi inson resurslari salohiyatini baholashda indikatorlar tizimini ishlab chiqish orqali differensial yondashuvni qo'llaganlar. Bu yondashuv mintaqaviy siyosat ishlab chiqishda samarali vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Yana bir muhim yondashuv – bu inson kapitalining iqtisodiy rivojlanishdagi rolini geografik va madaniy farqlilik kontekstida baholashdir. Gennaioli N. va La Porta R³. ushbu omillarni o'z ichiga olgan model orqali inson kapitalining iqtisodiy o'sishga ta'sirini aniqlab, rivojlanayotgan mintaqalarda bu aloqaning strategik ahamiyatini ta'kidlaydi. Ularning

¹ Faggian, A., Modrego, F., & McCann, P.: *Human Capital and Regional Development*

<https://www.elgaronline.com/edcollchap/edcoll/9781788970013/9781788970013.00015.xml>

² Jašková, D. & Havierníková, K. *The Human Resources as an Important Factor of Regional Development*

10.33736/ijbs.3364.2020 // https://app.scholarai.io/paper?paper_id=DOI:10.33736/ijbs.3364.2020

³ Gennaioli, N. & La Porta, R. *Human Capital and Regional Development*: <https://academic.oup.com/qje/article-abstract/128/1/105/1840182>

xulosasiga ko'ra, yuqori inson kapitaliga ega hududlar uzoq muddatda iqtisodiy barqarorlik va innovatsion salohiyat bo'yicha ustunlikka ega bo'ladi.

Ijtimoiy infratuzilma va yashash sifati ham inson kapitalini shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Iqtisodchi olimlarning bir guruhi Sycheva I.N., Chernyshova O.V., va Panteleeva T.A⁴. o'z ishlarida qishloq hududlarida ijtimoiy sharoitlar, jumladan, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimining sifati, transport va kommunikatsiya tarmoqlarining mavjudligi, uy-joy sharoitlari hamda ekologik xavfsizlikning inson kapitalini rivojlantirishga bevosita ta'sirini asoslagan.

Shuningdek, global tahdidlar – iqlim o'zgarishi, pandemiyalar, iqtisodiy inqirozlar fonida inson kapitali rivojining omillari qayta ko'rib chiqilmoqda. Rossiya iqtisodchilari Demchenko O., Basiurkina N., va Popadynets N⁵. tomonidan olib borilgan tahlil qishloq joylarda mehnat migratsiyasi, ekologik xavfsizlik va raqamlashtirishning ahamiyatini urg'ulaydi. Ularning fikricha, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda inson kapitalini intellektual resurs sifatida shakllantirish bugungi kun talabiga aylandi.

Xulosa

Inson kapitali — bu zamonaviy iqtisodiyotda mintaqaviy raqobatbardoshlik, ijtimoiy adolat va innovatsion salohiyatni belgilovchi eng muhim tarkibiy resursdir. Bu tushuncha nafaqat iqtisodiy kategoriyadir, balki u ijtimoiy, madaniy va institutsional jihatlarni o'zida mujassamlashtirgan ko'p darajali tizim hisoblanadi. Inson kapitalining rivojlanish sur'ati va sifati bevosita tarzda hududiy farovonlik darajasini aniqlaydi va uni uzoq muddatli iqtisodiy o'sish bilan uyg'unlashtiradi.

Birinchidan, inson kapitalining asosiy tayanchi bo'lgan ta'lim sifati regional ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar uchun strategik ustuvorlik sifatida qaraladi. Yuqori sifatli ta'lim tizimi mehnat bozoriga malakali kadrlarni yetkazib beradi, ijtimoiy harakatchanlikni oshiradi va hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytiradi. Bu esa hududlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirishga zamin yaratadi.

Ikkinchidan, sog'liqni saqlash tizimining samaradorligi ham inson kapitalining uzoq muddatli shakllanishida muhim o'rin tutadi. Sog'lom va mehnatga layoqatli aholi mintaqaning ishlab chiqarish quvvatini mustahkamlaydi, iqtisodiy faollik darajasini oshiradi va byudjetga tushumlar ko'payishiga olib keladi. Sog'liqni saqlash infratuzilmasining hududiy nomutanosibligi esa mintaqaviy tengsizlikni chuqurlashtiradi.

Uchinchidan, ijtimoiy infratuzilma va yashash darajasi aholi migratsiyasi, demografik o'zgarishlar va aholi zichligining hududiy taqsimoti kabi omillarni belgilovchi asosiy faktorlar sirasiga kiradi. Qishloq va chekka hududlarda ijtimoiy xizmatlarning past darajada bo'lishi inson kapitalining oqib ketishiga sabab bo'ladi, bu esa mintaqalar o'rtasidagi asimmetrik rivojlanishga olib keladi.

To'rtinchidan, inson kapitalining mintaqaviy rivojlanishdagi o'rni mehnat bozori ehtiyojlari bilan muvofiqlashtirilgan holda rivojlantirilishi lozim. Malakali ishchi kuchiga

⁴ Sycheva, I.N., Chernyshova, O.V., & Panteleeva, T.A.. *Human Capital as a Base for Regional Development: A Case Study*
https://www.um.edu.mt/library/oar/bitstream/123456789/46252/1/Human_capital_as_a_base_for_regional_development.pdf

⁵ Demchenko, O., Basiurkina, N., & Popadynets, N. *Factors and Determinants of the Development of Human Capital in Rural Areas in the Conditions of Global Challenges* <https://www.cceol.com/search/article-detail?id=1206475>

bo'lgan talab va ta'lim tizimi o'rtasidagi uzviylik yetishmasa, mintaqaviy iqtisodiyotlar strukturaviy inqirozga duch keladi. Bu borada raqamlashtirish, masofaviy ish va zamonaviy kasb ko'nikmalarining rivoji muhim ahamiyatga ega.

Beshinchidan, mintaqaviy siyosatning samaradorligi inson kapitalining boshqaruv salohiyatiga bevosita bog'liq. Mahalliy boshqaruv institutlari inson kapitali rivojiga sarmoya jalb etish, ijtimoiy xizmatlarni adolatli taqsimlash va innovatsion muhitni shakllantirishda faol ishtirok etishi lozim. Bu jarayon hududiy o'ziga xoslikni inobatga olgan holda amalga oshirilganda, natijalar samarali bo'ladi.

Shu munosabat bilan, inson kapitalining mintaqaviy rivojlanishdagi o'rni va roli strategik ko'rinishda qayta talqin qilinishi zarur. Kompleks yondashuv — ya'ni ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, yashash sharoitlari, raqamli infratuzilma va mehnat bozori ehtiyojlarining o'zaro integratsiyasi — regional siyosatning ustuvor yo'nalishlariga aylanishi kerak. Bu esa inson kapitali asosida raqobatbardosh, inklyuziv va barqaror hududiy rivojlanish modelini shakllantirishga xizmat qiladi.

